



ALEKSANDR GRIBOYEDOVNING QISQA HAYOT YO'LI

Tursaxatova M.E

koson tumanidagi 15-sonli maktabning rus tili va adabiyoti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mashhur rus dramaturgi Aleksandr Sergeyevich Griboyedovning hayoti va ijodi qisqacha yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *dramaturg, adabiyot, ijod, erkinlik, pyesa, teatr, dakabristlar.*


O'zbek kitobxonlariga eng avvalo "Aqllilik balosi"¹⁷ pyesasi bilan mashhur bo'lgan Aleksandr Sergeyevich Griboedov ajoyib dramaturg, iste'dodli shoir va bastakor, buyuk diplomat bo'lgan. U o'zining o'lmas komediyasi bilan rus realistik dramasi gullab-yashnashini boshlab bergan.

"Yurtim, yaqinlarim va uyim Moskvadir", degan edi A.Griboedov. U 1794-yilning 4-yanvarda Moskvada rus gvardiyasi zobiti S.I. Griboyedov oilasida tug'ilgan. Sakkiz yoshidan Aleksandr Sergeevich Moskva universiteti maktab-internatiga oqiy boshlagan. O'n ikki yoshida Griboyedov Moskva universiteti talabasiga aylanadi. Uning do'sti S.N. Begichevning aytishicha, Griboyedov, "ishtiyoq bilan" o'qigan, ajoyib muvaffaqiyatlarga erishgan. Yosh talabaning ma'naviy qiziqishlari keng va rang-barang edi. Falsafa fakultetini ikkita yo'nalish bo'yicha nomzodlik diploma bilan tugatadi. 1810 yilda bo'lajak yozuvchi tabiiy fanlar va matematika fakultetida o'qishni boshladi, bu zodagonlarning yoshlari uchun g'ayrioddiy edi. Griboyedov fransuz, ingliz, nemis va italyan tillarini a'lo darajada o'rgangan.

Talabalik yillarida Aleksandr Sergeyevichning teatr va adabiyotga ishtiyoqi uyg'ondi. 1810 yilda Griboyedov Ozerovning "Dmitriy Donskoy" tragediyasiga parodiya pyesasi yozdi (bu asarbizgacha yetib kelmagan). Moskva universitetida Griboyedov ko'plab bo'lajak dekabristlar bilan yaqin do'st bo'ldi. Talabalik yillarida P. Chaadaev bilan do'stlik boshlanadi. Universitetda o'qish davrida Griboyedovning erkinlik haqida fikrlari ham paydo bo'ladi. Boshqa ilg'or talabalar bilan birgalikda u Radishev, Novikov, Fonvizin, Knyazninlarning asarlarini o'qiydi. Litsey o'quvchisi Pushkin singari, Griboyedov ham 18-asr fransuz ma'rifatparlik falsafasini yaxshi bilgan va keyinchalik o'z maktublaridan birida Volterning yorqin qiyofasini tasvirlagan. Bo'lajak "Aqllilik balosining" muallifida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usi va hukmron doira vakillariga va krepostnoylik tuzumiga bo'lgan nafrat erta uyg'onadi.

1812 yilgi urush boshlanganda Griboyedov o'qishni tugatayotgan edi. "Moskva universitetida yuridik fanlar nomzodi darajasida bo'lsamda, dushmanning bizning vatanimizga bostirib kirishi haqidagi xabarni olishim bilan shifokorlik darajasini olish uchun sinovga tayyor edim... Shunda barcha mashg'ulotlarni tashlab harbiy xizmatga yollanishga qaror qildim" - deb yozadi Griboyedov.

¹⁷ Ba'zi manbalarda "Aqldan voy" deb tarjima qilinadi.






1812 yilgi urush Griboyedovda vatanparvarlik ruhining ko'tarilishi bilan ajralib turadi, bu uning keyingi hayoti va ijodini ilhomlantirgan. "Umrimda hech qachon Griboyedov Rossiyani sevganidek o'z vatanini shunchalik ehtiros bilan sevadigan odamni ko'rmaganman", deydi uning tanishlaridan biri. "Men rus bo'lishni xohlayman", - deydi Griboedovning o'zi. U "yaxshi axloq" bilan "Vatanga muhabbat va xalqning o'z siyosiy borligini himoya qilishdagi jangovar ruhi davlatning kuchi va mustahkamligini oshiradi", deb hisoblagan. Shu davrda Begichevga yozgan maktubida, uning qalbida "yaxshilikka muhabbat" paydo bo'lgani va qalbning haqiqiy go'zalligini tashkil etuvchi hamma narsani qadrlay boshlagani haqida yozgan.

Griboyedovning matbuotda paydo bo'lgan birinchi adabiy tajribalari ham harbiy xizmat yillariga to'g'ri keladi. 1814 yilning yozida u harbiy publisist sifatida dastlab zobitlarning kundalik hayoti haqidagi "Brest-Litovskdan nashriyotga maktub bilan" ("Yevropa xabarnomasi"), so'ngra "Otliq qo'shinlari zaxiralari haqida" maqolasi chop etiladi.

Urush so'ngida Griboyedov harbiy xizmatdan ketadi. U Sankt-Peterburgda joylashadi va tashqi ishlar kollegiyasi xizmatiga kiradi, u yerda litseyni tugatgandan so'ng Pushkin ham o'qishga kiradi. 1817 yildan ularning tanishuvi boshlanadi. Griboyedov hali harbiy xizmatda bo'lganida, o'zining birinchi komediyasini - "Yosh kelin-kuyovlar"ni (1814) yozgan. Sankt-Peterburgda u o'zini butunlay adabiy faoliyatga bag'ishladi. U Xmelnitskiy va Shaxovskiy bilan tanishadi. Griboyedov sahna san'atini chuqur anglashi bilan ajralib turardi. U iste'dodli rus aktyorlari bilan faxrlanardi (Semyanova, Karatigin). 1823-1824 yillarda u Moskvada o'sha paytdagi yosh aktyor M. Shepkin bilan ko'rishib turardi.

Griboyedovning adabiy va estetik pozitsiyalari o'ziga xosdir. U adabiy eskicha qarashli - rus adabiyotida klassisizm tamoyillari himoyachilariga salbiy munosabatda edi. Shuningdek, tanqidiy munosabat, fransuz dramaturgiyasidagi klassisizm maktabiga nisbatan ham edi: "Nega ular o'z iste'dodlarini uchta birlikning tor doirasiga joylashtirdilar va o'zlarining tasavvurlariga erkinlik bermadilar", degan edi Korney va Rasin haqida. Griboyedov ham Pushkin singari Shekspirning sxematik, bir yoqlama klassisizmga qarama-qarshi ijod qilishni hojlardi. Biroq, u Karamzin va Jukovskiyning sentimental-romantik maktabiga ham qo'shilmadi. Griboyedov dekabristlar va Pushkin bilan birgalikda milliy o'ziga xos rus adabiyotini rivojlantirish yo'llarini qidirdi.

1815-1820 yillardagi adabiy kurashda "kichik arxaistlar" deb atalgan bir guruh alohida o'rin tutadi. O'zining ilg'or ijtimoiy qarashlarida Shishkovning reaksiyon "Suhbatlar"ga muxolif bo'lgan yosh arxaistlar, shu bilan birga, Karamzin-Jukovskiy maktabining estetik tamoyillari va badiiy amaliyotini tanqid ostiga olardilar. Ular rus adabiyotining milliylik va o'ziga xoslik muammosiga o'zgacha yechim izlashardi. Bu yo'nalishdagi asosiy shaxslar Katenin va V. Kyuxelbekker edi. Griboyedov dastlab ularga qo'shiladi. Bu guruh bilan uni nafaqat do'stlik, teatr rishtalari, balki ijtimoiy kayfiyati, adabiy qarashlarning yaqinligi ham birlashtirgan. O'sha yillardagi adabiy





bahslarda Griboyedov Katenin tomonida edi. Gnedichning Kateninning "Olga" balladasini tanqidiy tahliliga qarshi polemik maqola yozdi. Ushbu balladada Griboyedov "Olga"da muallifi ijodiy bahslashgan Jukovskiyning "Lyudmila"ga qaraganda ko'proq xalqchillikni ko'radi. Keyinchalik Pushkin Griboyedovning maqolasini ma'qullagandi.

Biroq, Pushkin singari, Griboyedov uchun ham ma'lum adabiy davrada bo'lish, cheklanish va adabiy toqatsizlik mutlaqo begona edi. "Erkin yashaganimdek erkin yozaman", degan edi u. "Aqlilik balosi" muallifi eng avvalo asarlarning "tabiat", "hayot haqiqati"ga mos kelishini talab qilardi. Griboyedov ana shu ma'noda Shekspir dramaturgiyasiga yuksak baho bergan. U, masalan, Pushkin singari, romantik shoirlarning mavhum elegik orzularga bo'lgan ishtiyoqini yoqtirmasdi. "Orzular-ku mayli, - deb yozgan edi u, - endi qaysi kitobga qarasang, nimani o'qisang, she'r yoki xabar, hamma joyda orzu, haqiqiy hayot esa ko'rinmaydi". Griboyedov estetikasi mohiyatan realizm estetikasi sifatida rivojlandi.

Aleksandr Griboyedov o'z dramaturgiyasining ruhi va yo'nalishini darhol belgilab ololmadi. Uning 1814-1817 yillarda (A.A. Jandr bilan hamkorlikda) yozgan "Yosh kelin-kuyovlar" va "Soxta xiyonat" pyesalari fransuz tilidan erkin tarjima bo'lib, ananaviy oliy tabaqa komediya namunalaridan edi. 1817 yilda Griboyedov Katenin bilan birgalikda "Talaba" komediyasini yozadi, unda bo'lajak realist-satirik paydo bo'layotganini ko'rishimiz mumkin. Unda erka va xudbin aslzodalar muhiti, feodal odatlar (Zvezdov obrazi) tasvirlangan. Bu jihatdan "Talaba" Krilovning turmush haqidagi satirik komediyalariga o'xshash. Asarda adabiy raqiblarga qarshi kinoyalar, Jukovskiy she'rlariga va she'riyatdagi yo'nalishiga parodiyalar muhim rol o'ynaydi.

1818 yilda Griboyedov Eronga rus missiyasining kotibi sifatida yuboriladi, u yerda ikki yildan ortiq vaqt davomida bo'ladi: mamlakat bo'ylab ko'p sayohat qildi va feodal Fors odatlari haqidagi taassurotlarini yozgan sayohat yozuvlari va kundaliklarini yuritdi. 1821 yil noyabrda Erondan qaytgach, Griboyedov Kavkazdagi rus qo'shinlari qo'mondoni general A.P. Yermolov qo'l ostida diplomatik kotib bo'lib xizmat qildi. Bu yerda u erksevar odamlarning do'stona davrasida edi. Yermolov poytaxtda yashirin siyosiy jamiyat mavjudligini bilar edi. Qo'shinlar qo'mondonligining ko'plab a'zolari dekabrstlar jamiyatidan edi. Kavkazda Yakubovich, Kyuxelbekker bor edi, ular bilan do'stlik Griboyedovda ilg'or qarashlar va kayfiyatlarning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Bu vaqtda Griboyedov huquq, falsafa, tarix, siyosiy iqtisodni jadal o'rganadi va shu bilan birga sharq tillari bilan shug'ullanadi. U o'z davrining eng bilimli kishilaridan edi. Uning bilimiga chanqoqligi haqiqatan ham cheksiz edi. U ilmlarni Vatanga xizmat qilishdek yuksak maqsad bilan o'rgandi. Inson qanchalik ma'rifatli bo'lsa, - degan edi Griboyedov, - u o'z vataniga shunchalik foydali bo'ladi". 1823 yil boshida Griboyedov uzoq ta'til oldi va Moskvaga keldi. Bu yerda u yozuvchilar V.F. Odoyevskiy va P.A. Vyazemskiy bilan uchrashadi. Vyazemskiy bilan u 1824 yil may oyining oxirida "Kim ho'jayin, kim opa..." vodevilini yozadi. Shundan so'ng Sankt-Peterburgga ketadi.





Sankt-Peterburgda Griboyedov dekabristlar doirasiga, yetuk inqilobiy fitna muhitiga tushadi. U Trubetskiy, Rileyev, Obolenskiy, Kaxovski va "Shimoliy jamiyat"ning boshqa taniqli shaxslari bilan uchrashadi, Rileyevning "rus nonushtalari"da bo'ladi. Bu vaqtda uning A. Bestujev va dekabrist shoir A. Odoevskiy bilan do'stligi boshlanadi. 1825 yilning bahorida Kyuxelbekker Sankt-Peterburgga keladi...

1829 yilda Tehronga diplomatik tashrifi chog'ida 34 yoshli Aleksandr Griboedov vafot etdi: diniy aqidaparastlar tomonidan qo'zg'atilgan katta olomon Rossiya elchixonasi joylashgan uyga hujum qildi. Aleksandr Griboyedov va uning o'limi haqida Rossiyada deyarli 30 yil davomida yozilmagan. "Aqllilik balosi" birinchi marta senzurasiz, tahrirlarsiz sahnaga qo'yilganidagina u buyuk rus shoiri haqida gapira boshlashgandi.

ADABIYOTLAT RO'YXATI:

1. А.С. Грибоедов в воспоминаниях современников – М.: Худож. лит., 1980.
2. А.С. Грибоедов. Творчество. Биография. Традиции. – Л., 1977.

